

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

“Ximoyaga ruhsat etildi”
Pedagogika fakulteti dekani,
g.f.n., dotsent
_____ **K.Boymirzayev**
“ ____ ” _____ **2018 yil**

5110900- Pedagogika va psixologiya yo'nalishi bitiruvchisi

Abdug'opporova Sayyora Doniyorbek qizining

“BO'LAJAK PEDAGOGLARDA TEXNOLOGIK KOMPETENTLIKNI
SHAKLLANTIRISH YO'LLARI” mavzuidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

“Ximoyaga tavsiya etildi” Pedagogika va psixologiya kafedrasi mudiri _____ p.f.nM.S.Nisho nov “ ____ ” _____ 2018 y.	BMIrahbari:p.f.n. dotsent O'. M. Asqarova
Namangan 2018	

Mundarija:

Kirish.....

**I BOB Bo'lajak pedagoglarda texnologik kompetentlikni shakllantirish
yo'llari muammosining pedagogik nazariy asoslari.....**

1.1 Kompetentlik, texnologik kompetentlik, mahorat tushunchalari
taxlili.....

1.2 Bo'lajak pedagoglarda texnologik kompetentlik qobiliyatini
shakllantirish
yo'nalishlari.....

1.3 Texnologik kompetentlik – zamonaviy o'qituvchiga qo'yilgan
talab.....

**II BOB Pedagoglarda texnologik kompetentlikni rivojlantirish shart-
sharoitlari.....**

2.1 Bo'lajak pedagoglar texnologik kompetentligini rivojlantiruvchi omillar.....

2.2 Bo'lajak pedagoglarda texnologik kompetentlikni rivojlantirish metod-
mezonlar

2.3 Tajriba sinov ishlarini tashkil etilishi va natijalar
taxlili.....

Xulosa.....

ro'yxati.....

Ilova.....

.....

Kirish

Muammoning dolzarbligi Hozirgi kunda Respublikamizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamdagi islohotlarning taqdiri yoshlarning yuksak ma'naviy kamoloti, intellektual salohiyati va kasbiy fazilatlariga bog'liq. Ushbu vazifalarni amalga oshirish, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da belgilab qo'yilgan. Mamlakatimizda o'tgan yillar davomida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, kuchli fuqorolik jamiyati qurishga, erkin bozor munosabatlariga va hususiy mulk ustuvorligiga asoslangan iqtisodiyotni rivojlantirishga, xalq osoyishtaligi va farovon hayot kechirishi uchun munosib shart-ssharoitlarni yaratishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda.

Hususan, 2017-2021 yillarda mamlakatimizni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi ishlab chiqildi:

- 1.Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish;
- 2.Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish;

3. Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish;

4. Ijtimoiy sohani rivojlantirish;

5. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish;

Mazkur yo'nalishlarning har biri mamlakatdagi islohotlarni va yangilanishlarni yanada chuqurlashtirishga oid aniq bo'limlardan iborat.

Davlat dasturining "Ijtimoiy sohani rivojlantirish" deb nomlangan to'rtinchi yo'nalish aholi bandligini oshirish, fuqorolarni ijtimoiy himoya qilish va ularning salomatligini saqlash, yo'l-transport, muhandislik-komunikatsiya hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va modernizatsiyalash, aholining muhtoj qatlamlariga ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam sifatini oshirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi maqomini oshirish, maktabgacha ta'lim muassasalarining qulayligini ta'minlash, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus va oliy ta'lim sifatini yaxshilash hamda ularni rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirishni nazarda tutadi.

Oliy ta'lim sifatini yaxshilash bevosita barkamol avliodga ta'lim tarbiya beruvchi bo'lajak pedagoglarni har tomonlama yetuk kadr bo'lib yetishishlarini kafolatlaydi. Chunki, pedagogik kasb bir paytning o'zida ham islohotchilik, ham boshqaruvchilik kasbi hisoblanadi. Shaxs kamolotini boshqarish uchun esa kompetent bo'lishi lozim. Shuning uchun o'qituvchini kompetentligi tushunchasi uning pedagogik faoliyatini amalga oshirishga nazariy va amaliy tayyorgarligi hamda yuksak darajadagi mahoratini ifodalaydi. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunining 5-moddasida «Yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega» ekanligi ko'rsatilgan. Shunga ko'ra bo'lajak o'qituvchilarning kompetentligi tarkibi pedagogik ko'nikmalar orqali namoyon bo'lishi mumkin. Bugungi zamonaviy ta'lim tizimiga nazar tashlaydigan bo'lsak pedagogning mahorati, uning kasbiy kompetentligi ta'limni sifatli amalga oshirish garovi desak mubolag'a bo'lmaydi. Binobarin, texnologik kompetentlik ham kasbiy kompetentlikning asosiy qismlaridandir. Bizga ma'lumki XXI asr axborot texnologiyalari asri bo'lishiga qaramay pedagoglarimiz ta'lim jarayonida bu borada hali ham oqsashmoqda.

Ko'plab pedagoglarimiz faoliyati quruq ma'ruza bilangina cheklanib qolyapti, zotan buyuk rus pedagogi Y.A.Komenskiy ta'kidlaganidek: "Eshitsam unutaman, ko'rsam eslab qolaman, bajarsam anglab yetaman", degan edi. Shunday ekan bo'lajak pedagoglarimiz ta'lim jarayonini pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, multimedia, slayd, audio-video vositalari bilan boyitishi uchun ularda texnologik kompetentlikni, mahoratni shakllantirish lozim. Bu esa o'z navbatida pedagogning o'z ustida ishlashiga, mavjud zamonaviy axborot texnologiyalaridan, zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lishga undaydi.

Mavzuning maqsadi: Bo'lajak pedagoglarni texnologik kompetentligini shakllantirish asosida tavsiyalar ishlab chiqish

Mavzuning vazifalari:

- Bo'lajak pedagoglarda texnologik kompetentlikni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;
- Yangi pedagogik texnologiyalardan kelib chiqan holda bo'lajak pedagoglarda texnologik kompetentlikni shakllantirishni omillari;
- Pedagogik fanlarni o'qitish jarayonida axborot telekommunikatsiya vositalari imkoniyatlarini o'rganish.
- Bo'lajako'qituvchilardateknologikkompetentliknishakllantirishyuzasid anmetodiktavsiyalarishlabchiqishvaularniamaliyotgajoriyetish.

Mavzuning ob'ekti Bo'lajak pedagoglarni texnologik kompetentlikni shakllantirish jarayoni.

Bitiruv malakaviy ishning nazariy ahamiyati:

- Bo'lajak pedagoglarning texnologik kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslarini o'rganish;
- Bo'lajak pedagoglarni texnologik kompetentligini shakllantirish omillaini ni aniqlash;
- Bo'lajak pedagoglarda axborot texnologiyalari orqali texnologik kompetentlikni shakllantirishning mezonlarini ishlab chiqish;

Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati: Bo'lajak pedagoglarda texnologik kompetentlikni shakllantirishga oid ilg'or g'oyalardan O'zbekiston Respublikasi uzluksiz talim tizimining barcha bosqichlarida, shuningdek kasb hunar kollejlarda kasbiy mahoratni oshirishda ularda kasbiy bilimlarni egallashga va amaliyotga tadbiq etishda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi

BMI kirish, 2 bob, 6 paragraf, umumiy xulosalar, adabiyotlar ro'yhatidaniborat va ilovalar

I BOB Bo'lajak pedagoglarda texnologik kompetentlikni shakllantirish yo'llari muammosining pedagogik nazariy asoslari

1.1 Kompetentlik, texnologik kompetentlik, mahorat tushunchalari taxlili.

Yosh avlodni barkamol, komil inson bo'lib yetishishida pedagog, tarbiyachi va o'qituvchilarning ro'li benihoya kattadir. Olimlar ta'kidlaganlaridek, "Birovni o'qitadigan, tarbiya beradigan inson, avvalo, o'zi har tomonlama barkamol bo'lmog'i shart". Shu sababli pedagoglar ish faoliyatini yanada yuksaltirish, kasbiy mahoratini oshirish asosiy birinchi vazifa sifatida qayd etilmoqda. Bugungi kunda ta'lim beruvchilarning kasbiy kompetentligini samarali olib borilishini

ta'minlash dolzarb masalaga aylandi. Barcha ta'lim muassasalarida ta'lim beruvchilarning kasbiy kompetenti muhim o'rin egallaydi.

“Kompetentlik” (ingl. “competence” – “qobilyat”) – faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, maxorat va iqtidorni namoyon eta olish.

“Kompetentlik” tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik ilmiy izlanishlar natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik “noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalikni anglatadi. Kasbiy kompetentlik esa, mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olishi.

“Kompetent” so'zi lotincha “copeto” so'zidan olingan bo'lib, “erishyapman, munosibman” degan ma'noni anglatadi hamda ma'lum sohadan xabardorlik va tajribaga ega ekanlikni bildiradi. E.Zeyer, D.Zavodchikovlar “kompetent” atamasiga mutaxassisning o'z faoliyatini samarali tashkil qilishga qaratilgan xatti-harakatlar yig'indisi deb qarashadi. Ogayo shtati universiteti olimlari kompetentlik tushunchasini shaxsning ma'lum soxada samarali ishlashi uchun kerak bo'lgan ko'nikma va malakalar to'plami deb hisoblaydilar. Ushbu sohaning yetakchi tadqiqotchilaridan biri amerikalik olim R.Meyers “kompetentlik- bo'lajak mutaxassisning qandaydir ma'lum baxolash me'zonlariga javob berishi emas, balki uni ishlab chiqishda qo'llab, isbotlay olishidir”, degan xulosani beradi. Pedagogning kasbiy kompetentligi deganda, uning bilim, ko'nikma, qobilyat, qarashlari, malakasi va ta'lim berish qobilyatlarining nomoyon bo'lishini belgilab beradigon shaxsiy sifatleri va qadriyatlar yig'indisini tushunamiz.

Texnologik kompetentlik – kasbiy-pedagogik bilim, ko'nikma, malakalarni boyitadigan ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish, zamonaviy axborot vositalari, texnika va texnologiyalardan foydalana olishdir.

“Texnologik kompetentlik” tushunchasini turli nuqtai nazardan, kasbiy kompetentlikning tarkibiy qismi sifatida ham, shaxsning axborot madaniyatining tarkibiy qismi sifatida ham baholash mumkin. Ahamiyatli belgilar sirasiga axborot texnologiyalari asoslarini bilish, kompyuterdan zaruriy texnik vosita sifatida foydalanish, axborotni izlash, tahlil qilish va foydalanishga oid bilim, ko'nikma va malakalarning jami kiritiladi. Pedagog faoliyat jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishi, ta'lim berishni va ta'lim olishni yengillashtiradi, tarbiyachi uchun ta'limda qulaylikni ta'minlaydi, ta'lim oluvchilarning bilim olishga qiziqishini, aqliy qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi. Axborot texnologiyalarining o'ziga xos xususiyatlaridan shu ma'lum bo'ladiki, pedagog texnologik kompetentligi va mahoratini oshirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish nafaqat ta'lim samarasini, balki tarbiyachi ish faoliyati natijasini ham ijobiy tomonga o'zgatiradi.

Mahorat bu – ta'lim jarayonining barcha shakllarini eng qulay va samarali holatda tashkil etish, ularni shaxs kamoloti maqsadlari tomon yo'naltirish, bolalarda dunyoqarash, qobiliyatni shakllantirish, ularda jmiyat uchun zarur bo'lgan faoliyatga moyillik uyg'otish. Ta'lim jarayonida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning kommunikativ va bilish faoliyatini sifat o'zgarishlariga olib boradi hamda ta'lim olish usullarining o'zgarishi asosida shaxs sifatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, internet bilan ishlaganlarida o'quvchilarning faolligi ortadi va ta'lim jarayoni individuallashadi, turli ma'lumot manbalari bilan ishlash imkoniyati paydo bo'ladi.

“Mahorat”(arabcha “mahorat” – mohirlik, ustalik, epchillik) – bir ish yoki faoliyatni yuksak darajada, hech bir qiyinchiliksiz, o'ta mohirlik bilan bajarish demkdir. Pedagogik mahorat esa, pedagogning pedagogic jarayonni tashkiliy, metodik, ruhiy va sub'ektiv jihatdan o'ta mohirlik, ustalik bilan tashkil etish hamda boshqarish qobiliyati va malakasiga egaligi hisoblanadi. Pedagog mahorati bevosita

kasbiy-pedagogik faoliyatda ko'rinadi. Shu sababli u pedagogic jarayonning umumiy mohiyatini chuqur anglay olishi, bu jarayonda ustuvor ahamiyat kasb etadigan qonuniyatlardan xabardor bo'lishi, pedagogic faoliyatni samarali tashkil etish mexanizmlarini puxta egallay bilishi lozim. Ta'lim jarayonining faol ishtirikchisi bo'lgan pedagogning pedagogic mahorati uning shaxsi, ish tajribasi, fuqarolik maqomi, mutaxassis sifatidagi mavqei, u tomonidan pedagogic texnikaning yetarli darajada egallanganligi, kasbiy faoliyatning individualligidan dalolat beradi.

Ta'limning barcha bosqichlarida yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish, ayniqsa, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali va oqilona foydalanish va yuqori samaradorlikka erishishga alohida ahamiyat berish darkor. Jahon talablariga mos keluvchi raqobatbardosh, malakali kadrlar tayyorlashga, kelajak avlodni yuksak ma'naviyatga, ijtimoiy hayotda ro'y berayotgan o'zgarishlarga to'g'ri munosabatda bo'lishga, milliy qadriyatlarimizning mohiyatini chuqur anglab yetadigan barkamol shaxslarni tarbiyalash yo'lida faoliyat olib boruvchi o'qituvchi ijodkorlik, izlanuvchanlik, fidoiylik na'munalarini ko'rsatishi lozim. Shuningdek, o'qituvchida ham mahorat va san'at bo'lishi kerakki, u o'quvchilarni o'ziga jalb eta olishi, darsini qiziqarli qilib o'tishi va o'quvchiga bilim va tarbiya bera olishi kerak.

Hozirgi kundagi asosiy vazifalarimizdan biri o'quvchilarni shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy hayotlarida uchraydigan vaziyatlarda egallab turgan turli tipdagi malakalarini samarali ravishda qo'llashga o'rgatish, mustaqil o'rgatish, mustaqil ravishda fanga oid zaruriy axborotlarni izlab topish, tahlil qilish natijasida zaruriy bilimlarni oshirishga oid materiallarni ajrata olish, ko'zda tutilmagan noaniq, ya'ni muammoli vaziyatlar vujudga kelganda ish beradigan malakalarga alohida ahamiyat berish hamda egallangan bilimlarni kundalik turmushi jarayonida qo'llay oladigan xususiyatlarni egallashni tarbiyalashdan iboratdir.

1.2. Bo'lajak pedagoglarda texnologik kompetentlik qobiliyatini shakllantirish yo'nalishlari

Bo'lajak pedagoglarning texnologik kompetentligini shakllantirishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati katta." Texnologiya" so'zi – ishlov berish, holatni o'zgartirish san'ati, mahorati, malakasi va metodlar yig'indisi degan ma'nolarni bildiradi.

Pedagogik texnologiya esa – natijani qo'lga kiritish uchun ta'lim doirasida zarur bo'lgan vositalar tizimini rejalashtirish va tatbiq etish demakdir.

Pedagogik texnologiyaning muammoli o'qitish texnologiyalari, o'yintexnologiyalari, tanqidiy fikrlashni o'stiruvchi metodlar, mualliflik texnologiyasi, shaxsni ko'zda tutishga asoslangan pedagogik texnologiyalar, o'qitishni jadallashtirish texnologiyasi, o'quv jarayonini samarali boshqarish va tashkil etish asosiga qurilgan pedagogik texnologiyalar, o'qitishni individuallashtirish hamda dasturlashtirilgan o'qitish texnologiyalari kabi yo'nalishlari mavjud.

Hozirgi oliy o'quv yurtlaridagi samarador o'qitish texnologiyasi — bumuammoli o'qitishdir. Uning vazifasi faol bilish jarayoniga undash va tafakkurda ilmiy-tadqiqot uslubini shakllantirishdir. Muammoli o'qitish ijodiy, faol shaxs taibiyasi maqsadlariga mos keladi. Muammoli o'qitish jarayonida talabaning mustaqilligi o'qitishningreproduktiv shakllariga nisbatan tobora o'sib boradi. Muammoli o'qitishning mohiyatini, o'qituvchi tomonidan talabalarning o'quv ishlarida muammoli vaziyatni vujudga keltirish va o'quv vazifalarini, muammolarini va savollarini hal qilish orqali yangi bilimlarni o'zlashtirish bo'yicha ularning bilish faoliyatini boshqarish tashkil etadi. Bu esa bilimlarni o'zlashtirishning ilmiy-tadqiqot usulini yuzaga keltiradi.

Mana shunday muammoli ta'lim texnologiyalaridan biri muammoli leksiya. Muammoli leksiya talabalarning faqat tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi bo'lishini taqozo qiladi. U ilmiy tafakkur uslubini rivojlantiradi. Ular axborot mazmunini yangilash va yangi bilimlar olish orqali tahlilga, tushunish va izohlashga, o'iganilayotgan ilmiy muammolarni nazariy jihatdan fikrlashga diqqatni jalb qiladi. Muammoli leksiya davomida talabalarda mavjud bo'lgan bilimlardan foydalaniladi, ularni yangi axborotlar bilan bog'liq ravishda

yangilanishini amalga oshiradi. Muamunoli leksiya bilish faoliyatini samarali boshqarishni ta'minlaydi.

Shunday qilib, muammoli o'qitish, o'quv jarayonini tashkil etishning shunday shakli, unda o'qituvchi boshchiligida muammoli vaziyat va bu vaziyatning yechilishidagi talabalarning samarali mustaqil faoliyati yuzaga keltiriladi. Muammoli o'qitishni tashkil etish natijasida talabalarda kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalar hamda fikrlash qobiliyatlarini o'stirishning ijodiy imkoniyatlari yuzaga keladi.

O'yinli texnologiyalardan foydalanishning asosini talabalarning faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyati tashkil etadi. O'yin olimlar tadqiqotlariga ko'ra mehnat va o'qish bilan birgalikda faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi. O'yinli faoliyat muayyan funksiyalarni bajarishga bag'ishlangan bo'ladi. Ular quyidagilar:

- *maftnkorlik* ;
- *kommunikativlik* ;
- *o'z imkoniyatlarini amalga oshirish*;
- *davolovchilik* ;
- *tashxis*;
- *millatlararo muloqot*;
- *ijtimoiylashuv*.

O'yin ijodiyligi bilan ajralib turadi. U mumkin qadar boy, faol xarakteiga ijod maydoniga ega bo'ladi. O'yin uchun hissiy ko'tarinkilik xosdir. U o'zaro kurash, musobaqalashish, raqobat shaklida namoyon bo'ladi.

O'yinning o'yin mazmunini aks ettiruvchi, uni rivojlantirishning mantiqiy va vaqtincha izchilligini ko'zda tutgan bevosita tegishli va unga nisbiy aloqador qoidalari bo'lishini ko'rsatadilar. Tadqiqotchilar nazariy aspektda o'yinga faoliyat, jarayon va o'qitish metodi sifatida qaraydilar. O'yin faoliyat sifatida maqsadni belgilab olish, rejalashtirish va amalga oshirish, natijalarni tahlil qilishni qamrab oladi va bunda shaxs subyekt sifatida o'z imkoniyatlarini to'la amalga oshiradi.

O'yindan tushunchalar, mavzu va hatto o'quv predmeti bo'liminio'zlashtirishda o'qitish metodi va mustaqil texnologiya sifatida foydalanili.

O'yin bilish va uning bir qismi (kirish, mustahkamlash, mashq, nazorat) tarzida tashkil etiladi.

O'yinlar turli maqsadlariga yo'naltirilgan bo'ladi. Ular didaktik, tarbiyaviy, faoliyatni rivojlantiruvchi va ijtimoiylashuv maqsadlarida qo'llaniladi.

O'yinning didaktik maqsadi bilimlar doirasi, bilish faoliyati, amaliy faoliyatda bilim, malaka va ko'nikmalarni qo'llash, umumta'lim malaka va ko'nikmalarini rivojlantirish, mehnat ko'nikmalarini rivojlantirishni kengaytirishga qaratilgan bo'ladi.

O'yinning tarbiyaviy maqsadi mustaqillik, irodani taibiyalash, muayyan yondashuvlar, nuqtai nazarlar, ma'naviy, estetik va dunyoqarashni shakllantirishdagi hamkorlikni, kollektivizmni, jamoaga kirishib keta olishni,

kommunikativlikni tarbiyalashga qaratilgan bo'ladi.

Faoliyatni rivojlantiruvchi o'yinlar diqqat, xotira, nutq, tafakkur, qiyoslash malakasi, chog'ishtirish, o'xshashini topish, faraz, xayol, ijodiy qobiliyat, empatiya, refleksiya, optimal yechimni topa olish, o'quv faoliyatini motivatsiyalashni rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi.

Ijtimoiylashuv o'yinlari jamiyatning me'yorlari va qadriyatlariga jalb qilinish, muhit sharoitlariga ko'nikish, ehtirolami nazorat qilish, o'zini boshqarish, muloqotga o'rgatish hamda psixoterapiyani nazarda tutadi.

Mualliflik texnologiyalari pedagogik strategiya sifatida talaba vao'qituvchilar faoliyatini faollashtirish va jadallashtirish vositalariga ega bo'ladi. Bunday texnologiyalarga quyidagilarai keltirish mumkin:

- *pedagogik jarayonda shaxsni kof'zda tutishga asoslangan pedagogic texnologiya (Sh.A.Amonashvili texnologiyasi);*

- *o'quv materialini sxemalar va modellar ishorasi asosida o'qitishni jadallashtirish texnologiyasi (V.F.Shatalov texnologiyasi);*

- *o'quv jarayonini samarali boshkarish va tashkil etish asosiga qurilgan texnologiya (S.N.Lisenkova texnologiyasi va N.P.Guzikning olqitish tizimini rejalashtirish texnologiyasi);*

- *o'qitishni individuallashtirish texnologiyasi (Inge Unt, A.S. Graniskaya va V.D.Shadrikovlar texnologiyasi);*

- *o'qitishni dasturlash texnologiyasi (B.P. Bepalko).*

Shaxsni ko'zda tutish texnologiyasi har tomonlama rivojlangan shaxs-fuqaroning shakllanishi, ijodiy qobiliyatini namoyon qilish, ma'naviy-ahloqiy

tarbiya bilan bevosita bog'langan intellektual rivojlanishga qaratilgan. Bunday texnologiyalar sirasiga "Hamkorlik pedagogikasi" va Sh.M.Amonashvilinin inson-shaxs texnologiyasi kiradi.

Hamkoriik pedagogikasi XX asming 80-yillarida rivojlana boshladi vata'limdagi ko'pgina innovatsion jarayonlarni hayotga choriadi. Bu texnologiya

negizida taniqli rus va chet el pedagoglarining tajribasi yotadi. Ular K.D.Ushinskiy, N.P.Pirogov, L.N.Tolstoy, J.J. Russo, Ya.Korchak, K.Rodjers, E.Bem, S.T.Shaskiy, V.A.Suxonilinskiy va boshqalardir.

Hamkorlik pedagogikasi 4ta asosiy yo'nalish bo'yicha amalga oshiriladi:

- *shaxsga inson, shaxs sifatida yondashuv;*
- *dialektik faollashtiruvchi va rivojlantiruvchi majmua;*
- *tarbiya konsepsiyasi;*
- *atrof-muhitni ta'lim-tariyaga moslash;*

Sh.A.Amonashvilining inson-shaxs texnologiyasi. Shalva Aleksandrovich

Amonashvili taniqli pedagog olim va amaliyotchidir. U o'zining eksperimental maktabida hamkorlik pedagogikasini, shaxsiy yondashuvni, til va matematika o'qitishning ajoyib metodikasini ishlab chiqdi va hayotga tatbiq etdi. Sh.A. Amonashvilining asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- bolaning shaxsiy xislatlarini namoyon qilish orqali unda olijanobinsonning shakllanishi, rivojlanishi va tarbiyalanishiga imkon tugdirmoq;

- bolaning qalbi va yuragini ulug'lamoq;

- boladagi bilishga bo'lgan kuchlarni rivojlantirish va shakllantirish;

- keng va chuqur bilim hamda malaka olish uchun sharoit tugdirmoq;
- ideal tarbiya — bu oʻz-oʻzini tarbiyalamoq.

Sh.A. Amonashvili oʻzining texnologiyasini amalga oshirish uchun quyidagi metodika va metodik usullardan foydalandi:

- insonparvarlik;
- shaxsiy yondashuv;
- muloqot mahorati;
- oila pedagogikasining qotshimcha imkoniyati;
- oʻkuv faoliyati.

Sh.A.Amonashvili texnologiyasida bola faoliyatini baholash alohida ahamiyatga ega. Baholardan foydalanish oʻta cheklangan. Miqdoriy baholashdan koʻra sifatli baholashga urgʻu beriladi, yaʼni tavsif, natijalar paketi va oʻz-oʻzini baholash.

Oʻqitishni jadallashtirish texnologiyasini Viktor Fedorovich Shatalov ishlab chiqdi va hayotgajoriy qildi. U oʻqitishning anʼanaviy sinf-dars usulining hali ochilmagan katta imkoniyatlarini koʻrsatib berdi. V.F. Shatalovning maqsad-moʻljali:

- *bilim, malaka va koʻnikmalarni shakllantirish;*
- *har qanday individual xususiyatlarga ega boʻlgan barcha bolalarni oʻqitish;*
- *oʻqitishni tezlashtirish.*

V.F.Shatalov metodikasi 4 bosqichdan iborat boʻlib, ular bir qancha usul va metodik yechimlarni oʻz ichiga oladi:

1. Nazariyani sinfda oʻrganish: taxtda oddiy tushuntirish (boʻr, koʻrgazmali qurol, oʻqTV bilan); boʻyalgan plakat — tayanch konspekt boʻyicha qayta tushuntirish; plakat boʻyicha qisqacha bayon qilish; oʻquvchilarning oʻz konspektlari ustida individual ishlashlari, konspekt bloklari boʻyicha keng mustahkamlash.

2. Uydagi mustaqil ishlar: tayanch konspekt+darslik+ota-onalar yordami. Oʻquvchilarga uqtirish: konspektidan foydalangan holda oʻqituvchining tushuntirganlarini esla, berilgan materialni kitobdan oʻqi; oʻqiganlarningni konspekt

bilan qiyosla; konspekt yordamida darslik materiallarini soʻzlab ber (kodlashtirish-dekodlashtirish); konspektni soʻzlab berish uchun tayanch sifatida yodda saqla; konspektni qayta ishlab chiqqish va namunaga qiyosla.

3. Birinchi takrorlash - konspektni oʻzlashtirishni har tomonlama keng nazorat qilish: barcha oʻquvchilar konspektni xotirasida qayta ishlab chiqadilar, oʻqituvchi ulami peshma-pesh tekshirib boradi; bir vaqtning oʻzida <<asta>>va magnitafon orqali soʻrab boradi; yozma ishdan soʻng ogʻzaki soʻrash boshlanadi.

4. Tayanch konspektni ogʻzaki soʻzlab olish - oʻzlashtirishdagi tashqi nutq (ogʻzaki) faoliyatining eng muhim bosqichi, u turli savoljavoblar jarayonida yuz beradi.

5. Ikkinchi takrorlash-umumlashtirish va bir tizimga keltirish (tartibga tushirish): oʻzaro nazorat darslari; oldindan sinov savollari roʻyxatini nashr qilish; tayyorlash; barcha turdagi nazoratlardan foydalanish (taxtada, astagina, yozma va b.); oʻzaro soʻrash va oʻzaro yordam; oʻyinli unsurlar.

Oʻqitishni individuallashtiruvchi taʼlim texnologiyasi. Individual oʻqitishda faoliyatning mazmuni, metodlari va surʼatitalabaning xususiyatlariga moslashtiriladi. Oʻqitishni individuallashtirish;

- oʻquv jarayonini tashkil etish boʻlib, unda oʻqitish usullari, surʼatini tanlash talabaning individual xususiyatlari bilan bogʻlanadi;

- individual yondashuvni taʼminlovchi turli oʻtquv-metodik, psixologik-pedagogik va tashkiliy-maʼmuriy tadbirlardir.

Shunday qilib, didaktika boʻyicha amalga oshirilgan tadqiqotlarga koʻra oʻqitishni individuallashtirish oʻquv jarayonining shunday tashkil qilinishi, unda individual yondashuv va individual shakl ustuvor hisoblanadi.

Oʻqitishni individuallashtirish quyidagi mualliflik texnologiyasida asoslab berildi:

- *Inge Untning oʻqitishni individuallashtirish texnologiyasi;*

Inge Untning oʻqitishni individuallashtirish texnologiyasidagi asosiy konsepsiya hozirgi sharoitda oʻqitishni individuallashtirishning muhim shakli oʻquvchilarning maktabdagi va uydagi mustaqil ishlari deb qoidalashtirilgan. Inge

Uning mazmuni va metodikasi deb mustaqil ishlar uchun individual o'quv vazifalari, joriy o'quv adabiyotiga moslashtirilgan, individuallashtirilgan mustaqil ishlar qo'llanmasi asosida nashr etilgan ish daftarlarini tushunadi.

Dasturlashtirilgan ta'lim texnologiyasi. Dasturlashtirilgan o'qitish XX asrning 50-yillari boshida paydo bo'ldi. U amerikalik psixolog B. Skinner nomi bilan bog'liq. U materiallarning o'zlashtirilishini boshqarishning samaradorligini oshirishda, axborotlarni qisqacha-qisqacha uzatishning muntazam programmasi asosiga qurish va uni nazorat qilishni tavsiya etdi.

N. Krauder tarmoqlangan dasturi ishlab chiqdi, unda nazorat natijalariga ko'ra ta'lim oluvchilarga mustaqil ishlar uchun turli xildagi materiallar tavsiya etiladi.

G. K. Selevko dasturlashtirilgan o'qitishga quyidagi ta'rifni beradi, ya'ni dasturlashtirilgan o'qitish deganda o'qitish uskunalar (EHM, programmashtirilgan darslik, kinotrenaj va b.) yordamida programmashtirilgan o'quv materialining o'zlashtirilishini boshqarishni tushunadi. Dasturlashtirilgan o'quv material muayyan mantiqiy izchillikda beriladigan nisbatan katta bo'lmagan o'quv axborotlari seriyasidan iborat bo'ladi.

Bundan tashqari bo'lajak pedagoglarda mavjud bo'lishi kerak bo'lgan ahamiyatli belgilar sirasiga axborot texnologiyalari asoslarini bilish, kompyuterdan zaruriy texnik vosita sifatida foydalanish, ta'lim makoni sub'ektlarining faol ijtimoiy pozitsiyasi va motivatsiyasining ifodalanganligi, axborotni izlash, tahlil qilish va foydalanishga oid bilim, ko'nikma va malakalarning jami kiritiladi. Axborot olish kompetentligi. audio-video ko'rsatuv vositalari va axborot texnologiyalari yordamida mustaqil izlanish, tahlil qilish va zarur axborotlarni tanlab olish, ularni tahlil etish, o'zgartirish, saqlash va uzatish mahorati shakllantiriladi. Ushbu kompetentlik talabaning o'quv fanlari asoslarini muhim axborotlar asosida o'zlashtirilishini ta'minlaydi. O'qitish jarayonini, shu jumladan mustaqil bilim olishni muvaffaqiyatli amalga oshirishda axborotlar turli vositalari, ayniqsa kompyuterli axborotlar xizmat qiladi. O'qitish auditorlik va mustaqil bilim olish bilan (mustaqil) amalga oshiriladi.

Ta'lim jarayonlarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish jarayoni nafaqat ta'lim-tarbiyaning tashkiliy shakllari va metodlari o'zgarishiga, balki yangi metodlarni ham shakllanishiga olib keladi. Dars jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishda asosiy o'rinda multimediya turadi. Axborotning xilma-xil turlari: an'anaviy matn, jadvallar, bezaklar, grafiklar, diagramma va boshqalar. Original turlar nutq, musiqa, bideofilmlardan parchalar, telekadrlar, animatsiya va boshqalarni bir dasturiy maxsulotda integratsiyalaydi.

Ta'lim jarayonlarining samarali o'tishi va undan kutilgan natijalarni berishi bu jarayonda muayyan talab va shartlarga amal qilish lozimligini taqozo etadi.

Zamonaviy texnologiyalar asosidagi ta'lim faoliyati:

- ta'lim faoliyatning texnologik asosini tez rivojlanishi bilan bog'liq ravishda o'quv mashg'ulotlarni o'tkazish bilan bog'liq murakkab jarayonni yengillashuvini;
- o'quv mashg'ulotlarni o'tkazishda pedagogning maxsus malakalarini shakllanishini.

O'quv mashg'ulotlarni zamonaviy axborot texnologiyalari vositalari asosida tashkillashtirishdan maqsadni belgilashda dastlab quyidagi omillar aniqlanishi lozim:

- zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning maqsadi;
- tadbirning maqsadiga erishishda qo'llaniladigan texnologiyalar;
- axborot materiallarini taqdim etish usullari;
- mashg'ulot o'tkazish metodlari;
- taqdim etiladigan muhokamali topshiriqlarining turlari;
- munozara va bahslarni tashkil etish yo'llari;
- o'zaro aloqa usullari va muloqot. Bularning barchasini o'quv mashg'ulotlarni tayyorlashga mas'ullar–pedagoglar va texnologiyalar bo'yicha mutaxassislar hamkorlikda amalga oshiradilar.

O'quv mashg'ulotlarni o'tkazish uchun texnologiyalarni tanlashda eng samarali yo'llardan biri – bu multimediali yondashuvdir. Bu bevosita berilayotgan ma'lumotning chuqurroq va mukammalroq o'zlashtirish, ta'limolish vaqtini

qisqarishi natijasida vaqtni tejash, olingan bilimlar kishi xotirasida uzoq muddat saqlanib kerak bo'lganda amaliyotda qo'llash imkonini beradi.

O'quv mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rishda o'qituvchi mavzu doirasidagi eng so'nggi ma'lumotlarga ega bo'lishi maqsadga muvofiq. Mavzu bo'yicha ma'lumotlar to'plashda ilmiy adabiyotlardan, Internet tarmog'idan foydalanish, mutaxassislar bilan suhbatlashish kerak. Lekin hozirgi vaqtda aholi orasida, Internet tarmog'i nisbatan eng ishonchli manba, degan yolg'on tasavvur mavjudligini e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Shuning uchun mashg'ulot ishtirokchilariga Internet eng ishonchli axborot manbai sifatida emas, balki tezkor manba sifatida baholanishini alohida ta'kidlash kerak. Bugungi kundagi eng ko'p aldovlar aynan Internet tarmog'i orqali ro'y berayotganini misol qilib o'z fikrini tasdiqlashi mumkin. Bunda Internetning ilmiy yo'nalishlardagi o'rni e'tirof etiladi. Shuningdek, kundalik ommaviy axborot vositalari, teleradiokanallardagi ma'lumotlardan o'rinli foydalanish zarur.

1.3. Texnologik kompetentlik – zamonaviy o'qituvchiga qo'yilgan talab

“Men XXI asr ma'naviyat asri, ma'rifat asri, ilm-fan, madaniyat va axborot asti bo'lishiga qat'iyan aminman”, degaan edi muxtaram birinchi prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov. Darhaqiqat, insoniyat XXI asrga qadam qo'ydiva yangi asr o'z navbatida jamiyatimiz oldiga muhim masalalarni hal qilish vazifasini yuklamoqda. Respublikamizda olib borilayotgan islohotlarning zamirida yuqori malakali mutaxassislarning ro'li benihoya kattadir. Prezidentimiz aytganlaridek: “Ertangi kun yangicha fikrlay oladigan, zamonaviy bilimga ega bo'lgan yuksak malakali mutaxassislarni talab etadi”. Shu sababli xalqimizning boy intellectual merosi va umumbashariy qadriyatlari, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalar assosida yetuk mutaxassislar tayyorlash tizimi ishlab chiqildi va jadal sur'atlar bilan hayotga tatbiq etilmoqda. 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi “Ta'lim to'g'risidagi” qonunning 1-moddasida fuqarolarga ta'lim, tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatishning huquqiy asoslari belgilab berildi.

Bo'lajak pedagoglarda texnologik kopetentlikni shakllantirishda oliy ta'lim muassasalarida inavatsion texnologiyalarining ro'li ortib bormoqda. Masofaviy texnologiyalardan foydalanish zamonaviy ta'limning imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. Bugungi kunda yer kurrasining istalgan joyidan turib, zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) imkoniyatidan foydalangan holda ta'lim olish mumkin. Zero, an'anaviy ta'lim o'z mavqeini saqlab tursa ham, keying payitlarda masofaviy o'qitish texnologiyalari kundan-kun ommaviylashib bormoqda. 2012-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi barcha oliy ta'lim muassasalari o'rtasida birinchi videokonfrentsiya ta'lim texnologiyasi amalga oshirildi va hozirgi kunda bu borada elektron ta'limgakata e'tibor qaratilmoqda.

Respublika taraqqiyoti va bozor iqtisodiyotiga mos ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni shakllantirish- zamon talablariga javob beradigan, yuqori malakali pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularni malakasini oshirish jarayonlari samaradorligini ta'minlovchi kasbiy ta'lim mazmunini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Bu esa o'z navbatida mutaxassislarning kasbiy kompetentligini shakllantirishga xizmat qiluvchi uzluksiz ta'lim mazmunini yangilash, o'qitishning inavatsion shakl va metodlari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish zaruratini shakllantirdi. Shu asosda bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirishga, ta'lim bosqichlarining o'zaro uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash bo'yicha qator chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ma'lumki, oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash, pedagog mutaxassislar tayyorlash tizimi sifat darajasini oshirishda o'qituvchilarning texnologik kompetentligini rivojlantitish, ularni sohaga oid zamonaviy kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirish, ilmiy texnik inovatsiyalardan mustaqil ravishda, ijodiyfoydalanish hamda istiqbolli vazifalarni hal qila olish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim talablardan hisoblanadi.

Mamlakatimizda ma'nan yetuk, ruhan sog'lom, uyg'un kamol topgan avlodni tarbiyalash uchun zarur imkoniyatlar bazasini yaratishga erishildi. "Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat dasturi"ning samarali amalga oshirilganligi buning

yoʻrqin dalilidir. Taʼlim-tarbiya samaradorligini oshirishda asosiy omil sifatiga qaralayotgan taʼlim texnologiyalarni ayniqsa, axborot kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga joriy etishdan, multimediya resurslaridan oqilona foydalanishdan, buning mevasi boʻlgan oʻquvchi bilish qobiliyatini oʻstirishdan iborat.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalarning afzallik tomoni shundaki, oʻquvchini mustaqil fikrlashga, dunyoqarashini kengaytirishga, tinglashga va mushohada etishga, intilish va izlanishga, tafakkurni rivojlantirishga, oʻz ustida mustaqil ishlashga oʻrgatadi. Oʻqituvchi va oʻquvchi birgalikda faoliyat yuritadi. Oʻqituvchi boshqaruvchi sifatida oʻquvchiga turli yoʻnalishlarni koʻrsatadi. Oʻquvchi dars jarayonida faol harakat qilib, oʻzi mustaqil fikr yuritadi. Bunda taʼlim bosqichlarining oʻzaro mazmunan bogʻliqligi, uzviyligi va uzluksizligini taʼminlash; oliy taʼlimda oʻquv jarayonini tashkil etishning ilgʻor pedagogik texnologiyalarini joriy qilish, bu borada oʻquv - uslubiy majmualar sifatini taʼminlash, pedagogik texnologiyalarni joriy etishda professor-oʻqituvchilarning kompyuter va internetdan foydalanish boʻyicha savodxonligini doimiy oshirib borish; oliy taʼlimning axborot-resurs va zamonaviy oʻquv adabiyotlari bilan taʼminotini yanada rivojlantirish; mazkur yoʻnalishlarda ilgʻor xorijiy tajribalarni oʻrganish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois hozirgi davrda taʼlim samaradorligini oshirish, boʻlajak pedagoglarning texnologik kompetentlik darajasini rivojlantirish, pedagog kadrlarni inavatsion faoliyatga yoʻnaltirish uchun avvalo, oliy taʼlim muassasalaridagi oʻquv jarayoniga innavatsion taʼlim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish, ilgʻor xorijiy tajribalarni oʻzlashtirish va maqsadli yoʻnaltirish dolzarb vazifalar sifatida belgilandi. Respublikamizda taʼlim tizimining barcha boʻgʻinlari yangi ilmiy adabiyotlar bilan taʼminlanmoqda. Pedagoglarga qoʻyilayotgan talablar asosida oʻz faoliyatlariga yangiliklar kiritib bormoqda. Yosh avlodga taʼlim-tarbiya berish jarayonida fan, texnika va ilgʻor tajribalardan foydalanish bilan bir qatorda zamonaviy pedagogic texnologiyalardan unumli foydalanilmoqda. Bu jarayon oʻqituvchilarda yanada maʼsuliyat xissini oshirmoqda. Pedagogik texnologiyaning

eng asosiy negizi o'qituvchi va o'quvchining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga aniq ketma-ketlik asosida tizimli, hamkorlikda erishishlari tanlagan texnologiyalariga bog'liq. Pedagogik texnologiyalarning asosiy belgilari – loyihalashtirish, amalga oshirish va kafolatli natija. Interfaol usullarning asosiy maqsadi-o'quvchilarni faol harakatga undash, darsga jalb etish, hamkorlikda ishlashga o'rgatishdan iborat. Bunday usulublarga: “Zinama-zina”, “Charxpalak”, “Bumerang”, “Muammo”, “Rezyume”, “FSMU”, “Yelpig'ich”, “Yozma baxslar”, “Venn diagrammasi”, “Tushunchalar tahlili”, “Muloqot”, “Uchga to'rt”, “Blits-so'rov” va shu kabi qator uslublar mavjud.

Hozirgi paytda o'quv materiallari, axborotni ekranda ko'rsatish imkonini vujudga kelishi va rivojlanishi bilan o'quv jarayonida erishilgan yutuqdan foydalanish keng yoyilib bormoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga tatbiq etilishi, iqtisodiy samara berish bilan birga ta'limda yangicha o'quv metodlarini keng ravishda qo'llashga imkoniyat yaratib beradi. Maxsus ixtisoslashtirilgan auditoriyalar, chunonchi, kompyuter, televizor, videomagnitafon bilan ta'minlangan auditoriyalarda dars o'tish brogan sari ommalashib bormoqda. Hatto uni alohida videometod sifatida talqin etilmoqda. Ayniqsa o'quv jarayoniga kompyuterning kirib kelishi bcha didaktik funktsiyalarni muvafaqqiyatli bajarish imkoniga ega videometodni keng qo'llash imkonini beradi. Buning natijasida uni kompleks didaktik texnologiya deb ham atalmoqda. U:

- o'quvchi talabalarga o'rganayotgan mavzusi, hodisa, jarayon, faoliyat bo'yicha to'liq, ishonchli axborot berish;
- o'quv jarayonida ko'rgazmalilikning rolini oshirish;
- talaba, o'quvchilarni xohish, talab, extiyojlarini, qiziqishlarini qondirish;
- o'qituvchining o'quvchi, talabalarining bilimini, ko'nikmalarini sinash bilan bog'liq texnik ishlardan ozod qilish, samarali aloqa o'rnatish;
- talaba-o'quvchilarni o'zlashtirishi bo'yicha ob'ektiv xisobot, to'la va uzluksiz nazoratni tashkil etish imkonini beradi.

Zamonaviy ta'limni tashkil etishda pedagogning ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish, interfaol usullarni o'zlashtirish, texnik, texnologik vositalarni amaliy joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Qisqa vaqt ichida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek ta'lim oluvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalar darajasini baxolash o'ituvchidan yuksak pedagogic mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi. Ta'lim-tarbiya jarayonidagi inovatsiyalar, ilg'or pedagogic texnologiyalar, yangiliklar, dars o'tishning interfaol usullari o'z o'zida yuqoridan buyruq, ko'rsatma bilan ta'lim jarayoniga kirib kelmaydi. Bu o'qituvchi faoliyati va uning motivatsiyasiga bog'liq bo'lgan jarayondir. Zamonaviy infarmatsion texnologiyalarga asoslangan o'quv jarayonida asosiy o'quvchining berilgan murakkab o'quv axborotlaridan osonlik bilan foydalana olishga yordam berish, o'quvchilarni mustaqil ta'lim olish faoliyatiga imkoniyat yaratish vazifalarini bajaradi. Shularni hisobga olgan holda zamonaviy ta'lim tizimida o'quv jarayoni va unda o'qituvchining ish faoliyatini rejalashtirishga doir ilmiy ishlarni keng doirada olib boorish kerak deb hisoblaymiz va bu o'z samarashini ko'rsatadi

Bugungi zamonaviy ta'lim tizimi pedagogdan o'qituvchi va o'quvchi orasidagi o'zaro individual munosabat va zamonaviy axborat texnologiyalari imkoniyatlari ta'sirini faollashtirishni talab etmoqda. Ta'lim jarayonida zamonaviy infarmatsion va telakommunikatsion texnologiyalarni faol qo'llash o'quv jarayonida o'qituvchining o'rni, ro'li va pedagogik faoliyatini ma'lum darajada o'zgartirishga olib keladi. Hozirgi vaqtda asosiy e'tibor zamonaviy infarmatsion texnologiyalarga asoslangan o'quv jarayoni modelini yaratish va multimediya texnoloogiyalariga asoslangan elektron darslik, o'quv qo'llanmalarini yaratish muammolari bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda.

II.BOB Bo'lajakpedagoglardatexnologik kompetentlikni rivojlantirishningshart-sharoitlari

2.1. Bo'lajak pedagoglar texnologik kompetentligini rivojlantiruvchi omillar

Davlat ta'lim standarti asosida o'qitish jarayonini tashkillashtirish ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash vazifasini yuklaydi. Ushbu vazifalarni amalda joriy etish maqsadi, ta'lim beruvchilarning o'qitishning interfaol metodlarini doimiy o'zlashtirishi bugungi kundagi innacatsion texnologiyalardan xabardor bo'lishi va pedagogic diagnostikani o'zlashtira oladigan izlanuvchi-pedagog bo'lishdir.

Mamlakatimiz rivojlanishining muhim sharti zamonaiy iqtisodiyot, fan, madaniyat, texnika, texnologiya rivoji asosida kadrlar tayyorlashning takomillashgan tizimning amal qilishga erishishdir. Ta'limning bugungi vazifasi o'quvchilarni kun sayin oshib borayotgan axborot-ya'lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko'rsata olishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iborat. Buning uchun ularga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish zarur. Ta'limning samaradorligini oshirish va bilimlarni to'la egallashlariga erishish, shaxsning ta'lim diqqat markazida bo'lishini va bo'lajak pedagoglarning mustaqil bilim olishlarini ta'minlash uchun ta'lim muassasalariga yaxshi tayyorgarlik ko'rgan va o'z sohasidagi bilimlarni mustahkam egallashdan tashqari zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va interfaol usullarni biladigan, ulardan o'quv va tarbiyaviy mashg'ulotlarni tashkil etishda foydalana oladigan o'qituvchilar kerak. Buning uchun, barcha fan o'qituvchilarini innavatsion pedagogic texnologiyalar va

interfaol usullar bilan qurollantirish hamda olgan bilimlarini o'quv-tarbiyaviy mashg'ulotlarda qo'llash malakalarini oshirib boorish lozim.

Bo'lajak pedagoglar o'z mutaxassisliklaribo'yicha egallagan bilimlari qatorida pedagogik bilimlarni hamda texnologik yondashuv asosida o'qitish uslubiyotlarini ham egallagan bo'lishlari zarur. Ana shularni e'tiborga olgan holda, bo'lajak pedagoglarni texnologik kompetentligini shakllantiruvchi omillar quydagilardir:

- Dars;
- Seminar-treninglar;
- Noan'anaviy darslar;
- Sayohat-ekskursiyalar;
- Amaliy darslar

Oliy ta'lim muassasalarida tashkil etilayotgan har bir dars nafaqat bo'lajak pedagoglarning pedagogik bilim olishlarini ta'minlashi balki, ularda pedagogik texnologiyalar, interfaol usullar, axborot-kommunikatsiya vositalaridan o'z faoliyatlarida foydalana olish ko'nikmalarini shakllantirishi lozim. Bunda bevosita ma'ruza darslarida elektron taqdimot, multimedia, interaktiv doska, audianjuman, videoanjuman, hamkorlik texnologiyalaridan foydalanish bo'lajak pedagoglarning kelgusi faoliyatlaridagi mashg'ulotlarda "qanday o'qitaman?" savollariga yechim bo'lishiga zamin yaratadi.

Elektron taqdimot – slaydlardan mashg'ulotlarda namoyish va ko'rgazmali material sifatida foydalanish bo'lajak pedagoglarga keng imkoniyatlar yaratib beradi. Beriladigan axborot materialining elektron taqdimotda animatsiyalar shaklida berilishi o'tkazilayotgan mashg'ulotlarning o'zlashtirilishini yengillashtiradi va ko'rgazmalilikni oshiradi. Namoyish slaydlarini talabalarga tarqatma materiallar sifatida ham tarqatish mumkin.

Slaydlarga nisbatan talabalar o'zlarining fikrlarini bayon etishlari mumkin va bu orqali ular olib borilayotgan mavzu bo'yicha xulosalar va savollarni shakllantirish malakalariga ega bo'ladilar.

Bo'lajak pedagoglarga bunday metodika yangi axborotlarni ko'payib borishi, talabalarning tayyorgarlik darajasini o'zgarishi bilan ma'lum bir mavzuga mo'ljallangan slaydni takomillashtirib borish imkoniyatini beradi.

Ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, eng avvalo, pedagogik talablarga javob berishi kerak. Ta'lim jarayonida pedagogik talablarga mos texnologiyalardan foydalanishni tashkil etish uchun quyidagi omillar muhim hisoblanadi:

- taqdim etilayotgan axborot resurslari ishonchli, tegishli sohaning hozirgi zamon holatiga mos, tizimli va ketma-ket, ko'rgazmali, amaliyot bilan bog'langan bo'lishi;

- taqdimot materiallari ilmiyligi va qabul qilinishi osonligining o'zaro optimal variantida berilishi;

- taqdimot materiallarining bayon etilishi talabaga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Berilayotgan axborotlar mashg'ulot mavzusining mazmuniga mos bo'lishi bilan birga talabalarda zarur ko'nikma hamda malakalarni shakllantirishni ta'minlovchi topshiriqlar va vazifalardan tashkil topishi, talabalar o'zlashtirishi lozim bo'lgan axborotlar hajmini aniqlashi, ma'lum bir mantiqiy tizimda taqdim etilishi, uzviylik va uzluksizlik tamoyillariga mos kelishi, nihoyat, tizimlilik tamoyiliga javob bera olishi zarur. Shuningdek, axborotlarning talabalar tayyorgarlik darajasiga mos bo'lishi maqsadga muvofiq sanaladi.

Multimedia - mashg'ulotlarda axborotning turli xil ko'rinishlari: rangli grafika, matn va grafikda dinamik effektlar, ovozlarning chiqishi va sintezlangan musiqalar, animatsiya, shuningdek to'laqonli videokliplar, xatto videofilmlardan foydalanilishini ta'minlaydi.

Interaktiv doska – bu kompyuterdagi tasvirlarni proektor orqali namoyish etadigan sensorli ekrandir. Maxsus dasturiy ta'minot matn, rasm, video va audio ma'lumotlar va ob'ektlar, hamda Internet-resurslar bilan ishlash va ular ustiga yozuv va izohlar tushirish imkonini beradi.

Videoanjuman – uzoqlashtirilgan foydalanuvchi guruhlar orasida (raqamli videoluzv lki oqimli video ko'rinishida ma'lumotlarni almashinish) yig'ilish va munozaralar o'tkazish jarayonini ta'minlaydi.

Audioanjuman – tarmoq texnologiyasi tizimi va telefondan foydalangan holda turli geografik nuqtalarda joylashgan bir qancha shaxslarning ma'lumotlarni ovozli – raqamli ko'rinishda almashinish jarayonini ta'minlaydi.

Bundantashqario'quvmashg'ulotlar o'tadigan xonato'g' ritanlanish kerak. Mashg'uloto'tish belgilangan xonako'rimsiz bo'lmasligi lozim. Agar mashg'uloto'tadigan xonazamonaviy texnologiyalar vositalari bilan jihozlanmagan bo'lsa, butalab alarning ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadivao'qituvchitarg'ib qilayotgang'oyal argaishonch bilan qarash paydobo'lmaydi.

O'quvmashg'ulot gamo'ljallangan xonalar qanchalik fangadoir ko'rgazmalijihozlar bilan jihozlansa, talabalarda hamg'urur, faxrlanish tuyg'ulari paydobo'ladi hamdao'tkaziladigan mashg'ulotning samaradorligi ortadi. Buxonalarni jihozlashda mavzu gadoiro'quv plakatlari, tarqatma materiallariga'tibor qaratish lozim bo'ladi.

Seminar-treninglar – interfaol metodlarda ishlash va o'sha sharoitlarda ishlash malakalarini hosil qilish uchun tashkil etiladi. Mazkur mashg'ulotda ixtirok etuvchilar ma'lum bo'lgan metodlarni o'z o'quv faoliyatlarida foydalanish uchun malaka va ko'nikmalarni hosil qiladilar. Treninglar davomida mavjud bo'lgan yangi metodlar muxokama qilinadi, o'rganiladi, ko'nikmalar xosil qilinadi. Bo'lajak edagoglar shu asosda yangicha ishlash faoliyatiga o'rganadilar. Umuman treninglar qo'shimcha ta'lim olishning asosiy formalaridandir. Treningni o'ziga xosligi shundaki, mutaxassisni o'z faoliyatini, qobiliyatini oshirishga yo'g'rilgan bo'ladi. Shunday semenr – treninglardan biri "Guruhli-munozara" metodi. Bu metod muammoli savollarni hamkorlikda muhokama etishda qatnashuvchilarning nazariya va strategiyalari asosida kechadi. Bunday metodlar masalaning yechimiga turli tomonlardan qarashga mo'ljallanadi, masalaning yechimiga har bir ishtirokchi alohida fikr bildiradi va shular asosida qandaydir yechimga olib kelinadi. Trener munozarani turli savollarni qo'yish

asosida boshqaradi va ularni yechim sari boshlaydi. Agar guruh a'zolari biror savolni o'rta tashlasalar, boshqaruvchisiz o'zlari yechimni izlab topishlari ham mumkin.

Trening o'tkazishni didaktik, vaziyatli-rolli, ijodkorlik, faoliyatda tashkil etish, ishchanlik, o'yinli metodlarga bo'lish mumkin. Treninlarni o'yinli metodlar bilan o'tkazilishi juda sermaxsul yo'ldir. Guruhlarda ishlash jarayonida ishtirokchilarni o'zaro tanishtirish o'yinlari ular orasida tortishish zo'riqishlarni oldini olishda katta rol o'ynaydi.

Amaliy mashg'ulotlar –bevosita bo'lajak pedagoglar uchun ochiq ma'ruzalar va amaliy mashg'ulotlar o'tkazish, o'tilgan darslarni muhokama qilish va tanqidiy tahlil etilishiga yo'naltirilgan bo'lib, u bo'lajak pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid innovatsiyalarni faol o'zlashtirish hamda amaliyotga tatbiq etish, fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlashga xizmat qiladi. Amaliy mashg'ulotlar:

- Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonlarini tashkil etishning mazmuni va shakliga qo'yilayotgan zamonaviy talablarni o'zlashtirish, tahlil qilish va baholashga;
- Pedagogik-psixologik hamda maxsus fanlarni o'qitish metodikasiga oid nazariy bilimlarni mustahkamlashga;
- Tegishli kafedralarning ish tajribasi, professor-o'qituvchilar salohiyati, "Usstoz-shogirt" tizimi asosidagi faoliyatni o'rganish, tahlil qilishga;
- Fanlar bo'yicha mashg'ulotlarni loyihalashtirish, o'quv me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqishga imkon yaratadi.

Bo'lajak pedagoglarning kompetentlikka, mahoratga ega ekanliklarini aniqlash maqsadida mezonlar ishlab chiqish zarur. Mavzuga doir manbalarni o'rganish, o'quvchilarning faoliyatlarini kuzatish, tajriba-sinov ishlarining turli bosqichlarida namoyon bo'lgan holatlar, ro'y bergan o'zgarishlarni inobatga olgan holda quyidagi mezonlar bo'lajak o'qituvchilarida texnologik kompetentligining shakllanganlik darajasini quyidagi mezonlar asosida baholash mumkin:

1. Kompetentlik, texnologik kompetentlik, mahorat, pedagogic mahorat kabi tayanch tushunchalar mohiyatini anglay olishlari.

2. Texnologik kompetentlikning muhim sharti davr talabi ekanligini tushunish.

3. Texnologik kompetentlikni shakllantirish ehtiyojiga egalik.

4. O'zida kompetentlikni shakllantirish yo'lida amaliy harakatlarni tashkil eta bilish.

5. Kasbiy kompetentlikka egalikni to'la namoyon eta olish.

Pedagogik adabiyotlarda qayd etilishicha, muayyan sifat turli shaxslarda turlicha namoyon bo'ladi yoki turli shaxslar o'zlarining muayyan sifatga egaliklarini turlicha namoyish etadilar. Shundan kelib chiqqan holda bo'lajak pedagoglarda texnologik kompetentligini shakllantirish turli darajalarda namoyon bo'ladi, degan xulosani ilgari surgan holda muayyan sifatlarning namoyon bo'lishi ko'p holatlarda uch ko'rinishda, ya'ni yuqori, o'rta va past darajalarda qayd etiladi

Shu sababli yuqorida keltirilgan mezonlar bo'yicha bo'lajak pedagoglarda texnologik kompetentlikka egaliklari quyidagi darajada baholash mumkin degan xulosaga kelindi:

Yuqori daraja – texnologik kompetentlikni oshirish, kompetentlik, mahorat kabi tayanch tushunchalarning mohiyatini chuqur anglaydilar, texnologik kompetentligi tushunchasi uning pedagogik faoliyatini amalga oshirishga nazariy va amaliy tayyorgarligi hamda yuksak darajadagi mahoratga ega bo'lishligi bu yo'lida amaliy harakatlarni tashkil eta bilishligi va unga to'la rioya eta oladilar.

O'rta daraja – texnologik kompetentlikni oshirish, kompetentlik va mahorat kabi tayanch tushunchalarning mohiyatini etarlicha anglaydilar, texnologik kompetentlikni oshirish davr talabi ekanligini tushunsalar-da, biroq, ushbu sifatlarni o'zlarida shakllantirish ehtiyojini doim ham namoyon etavermaydilar. Qolaversa, o'zlarida kasbiy mahoratni shakllantirish yo'lida amaliy harakatlarni tashkil etishda qiyinchiliklarga duch keladilar.

Quyi daraja – texnologik kompetentlikni oshirish, kompetentlik va mahorat kabi tayanch tushunchalarning mohiyatini deyarli anglamaydilar, kasbiy mahorat davr talabi ekanligini tushunsalar-da, biroq, ushbu sifatlarni o'zlarida shakllantirish

ehtiyojiga ega emaslar, shuningdek, o'zlarida texnologik kompetentlikni shakllantirish yo'lida amaliy harakatlarni tashkil etmaydilar.

Shunday qilib yuqoridagi mezonlar asosida tajriba –sinov ishidasiyaluvchi o'quvchilar o'rtasidagi texnologik kompetentlikni shakllangallik darajasidagi sezilarli farqlar aniqlandi.

2.2 Bo'lajak pedagoglarda texnnologi kompetentlikni shakllantirish metod-vositalari

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi" qabul qilinib, ushbu strategiyada mamlakatimiz ta'lim tizimini ham davr talablariga mos ravishda takomillashtirish ko'zda tutilgan. Shu bois 2017-yil 27-aprelda O'zbekiston Respublikasi prezidentining PQ 29/09 sonli "Oliy ta'lim tizimini isloh etish va yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qatori qabul qilindi. Bu qarorga muvofiq Respublikamiz miqiyosida barcha oliy ta'lim tizimlarini tubdan isloh qilish va ularning moddiy ta'minotini yaxshilashdan tortib hamkorlik masalalarini qamrab oldi. Shuningdek, bu ishlarning natijasini qadamba-qadam nazorat etish, ularni Respublikamiz oliy ta'lim muassasalarini mutaxassislariga xodimlariga yo'llanma va qo'llanma sifatida o'sha muassasadagi tarbiya jarayonini faollashtirishga samarali xissa qo'shishga yordam beradigan izchil siyosiy jarayonni tashkil etishga alohida ahamiyat qaratmoqdalar. Shu o'rinda aytish joizki, ushbu qabul qilingan qarorning maqsadi – mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan davlatlarning ilg'or tajribalar, zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarga asoslanib darslarni tashkil etib, shu negizda ta'lim samaradorlligini oshirish orqali ma'naviy barkamol va har tomonlama intellektual shaxsni tarbiyalashdir.

Hozirgi kunda mamlakatimizda ta'lim berishning yangi tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, bevosita jahon ta'lim tizimidan o'rin olishga yo'naltirilgan. Bu jarayon ta'lim-tarbiya jarayonidagio'zgarishlar bilan bog'liqdir. Jahon mamlakatlarining iqtisodiy kuchi, xalqning turmush-tarzining yuqori bo'lishi, jahon hamjamiyatidagi o'rni va nufuzi shu mamlakatning ta'lim va tarbiya tizimining rivojlanishi bilan

aniqlanadi. Umuman jamiyatning rivojlanishi va texnologiyalarni kiritish sifati mamlakatning ta'lim berish ishining yo'lga qo'yilganligi va shu sohani axborotlashtirish jarayoni bilan bog'liqdir. Davlat ta'lim standarti asosida o'qitish jarayonini tashkillashtirish ta'limda inavatsion pedagogic texnologiyalarni qo'llash vazifasini yuklaydi. Ushbu vazifalarni amalda joriy etish maqsadi, ta'lim beruvchilarning o'qitishning interfaol metodlarini doimiy o'zlashtirishi, hozirgi kundagi navatsion texnologiyalardan xabardor bo'lishi va psixologik-pedagogik diagnostikani o'zlashtira oladigan izlanuvchi-pedagog bo'lishdir. Mamlakatimiz rivojlanishining muhim sharti zamonaviy iqtisodiyot, fan, madaniyat, texnika, texnologiya rivoji asosida kadrlar tayyorlashning takomillashgan tizimining amal qilishiga erishishdir. Ta'limning bugungi vazifasi o'quvchilarning kun sayin oshib borayotgan axborot – ta'lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko'rsata olishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iboratdir. Buning uchun ularga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish zarur.

Ta'limning samaradorligini oshirish vabilimlarni to'la egallashlariga erishish shaxsning diqqat ta'lim markazida bo'lishini va yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta'minlash uchun ta'lim muassasalariga yaxshi tayyorgarlik ko'rgan va o'z sohasidagi bilimlarni mustaxkam egallashdan tashqari zamonaviy pedagogic texnologiyalarni va interfaol usullarni biladigan, ulardan o'quv va tarbiyaviy mashg'ulotlarni tashkil etishda foydalanaa oladigan o'qituvchilar kerak. Buninng uchun barcha fan o'qituvchilarini inavatsion pedagogic texnologiyalar va interfaol usullar bilan qurollantirish hamda olgan bilimlarni o'quv-tarbiyaviy mashg'ulotlarda qo'llash malakalarini oshirib boorish lozim. Pedagoglar o'z mutaxassisliklari bo'yicha egallagan bilimlari qatorida pedagogikva psixologik bilimlarni hamda texnologik yondashuv asosidagi o'qitish uslubiylotlarini ham egallagan bo'lishlari zarur. Ana shularni e'tiborga olgan holda bo'lajak pedagoglarning malakasini oshirishda quyidagi masalalar muhim deb belgilanadi:

- o'qitish jarayonining samaradorligini ta'minlovchi pedagogic malakalarni shakllantirish;

- o'qituvchi faoliyatining metodologik asosi sifatida pedagogik bilimlar tizimini egallash;
- o'qituvchilarning kasbiy faoliyatlarida foydalaniladigan uslublar tizimi. sifatidagi o'qitish texnologiyasini egallash.

Hozirgi payitda mamlakatimizda ta'lim sohasidagi tub o'zgarishlar natijasida iqtidorli yoshlarni aniqlash va ularni ijodiy ish bilan shug'ullanishiga kata imkoniyatlar yaratilgan. Shuning uchun yosh avlod tarbiyasi bilan shug'ullanadigan ijtimoiy-pedagogik xizmatning sifatini oshirish, uni samarali tashkil etishning ehtiyoji tug'uldi. Navbatdagi kechiktirib bo'lmaydigan eng muhim vazifa – o'qituvchilar innovatsiyaning ilmiy-pedagogik asoslarini o'zlashtirishi talab etiladi.

“Innovatsiya” degan so'z – lotin “novus” yangilik va “in” kiritish degan so'zdan olingan bo'lib, uning o'zbekcha tarjimasi “ yangilik, yangilanish, o'zgarish” degan ma'nolarni bildiradi. “Innovatsiya” tushunchasi haqida tadqiqotchilar tomonidan har xil tariflar berilgan. Masalan, E. Rodjers innovatsiya tushunchasi haqida shunday deydi: “Innovatsiya – ma'lum bir insonga yangi bo'lib qabul qilinadigan g'oyalar” desa, tadqiqotchi olim Mayls: “Innovatsiya-maxsus yangicha o'zgarish. Biz undan tizimli vazifalarnimizning ro'yobga chiqishini va uning yechimlarini kutamiz”, -deydi.

Innovatsion texnologiyalarni yaratish, izlash, topish, to'plash haqida tegishli ma'lumotlar jamg'arma bankini yaratish, tahlil qilish, tanlash, ta'lim muassasasiga joriy etish bo'yicha tashkiliy- pedagogic ishlarni tashkil etadi. Xulosa shuki, agar bo'lajak pedagoglar innovatsiyalarni o'quv jarayoniga tatbiq etishni yo'lga qo'ysa:

- o'qituvchilarning yangilikka intiluvchanligi, yangilikni yaratish izlab topish,, to'plash va ta'lim jarayoniga qo'llash ko'nikma va malakalari shakllanadi;
- o'quv jarayoniga o'quvchilarning faol qatnashishiga, mas'uliyatni his qilib o'z fikrini bildirishga ijodiy muhit yaratadi;

- o'quv jarayonini samarali va qiziqarli tashkillashtirishga imkoniyt yaratadi;
- ta'lim samaradorligi kafolatlanadi.

Yuqoridaggi fikr-mulohazalardan kelib chiqib, bugungi kunda respublikamizda amalga oshirilayotgan ta'lim sohasidagi tub o'zgarishlar yoki ta'limda innovatsiyalar o'z navbatida o'quv jarayoniga interfaol metodlarni qo'llash orqali ko'rishimiz mumkin. Hozirgi paytda ta'limning har bir bo'g'inida o'qituvchi texnologik kompetentligining bir qismi bo'lgan interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish tobora ommalashmoqda. Bo'lajak o'qituvchilar mazkur metodlarni o'zlashtirish orqali ta'lim sub'ektlari – o'qituvchi, o'quvchi va o'quvchilar guruhi o'rtasida yuzaga keluvchi hamkorlik, qizg'in bahs–munozaralar, o'zaro fikr almashish imkoniyatiga egalik asosida tashkil etiladi, o'quvchilarda erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarni bayon etish, muammoli vaziyatlarda yechimlarni birgalikda izlash, o'quv materiallarini o'zlashtirishda o'quvchilarning o'zaro yaqinliklarini yuzaga keltirish, “o'qituvchi-o'quvchi-o'quvchilar guruhi” o'zaro bir-birlarini hurmat qilishlari, tushunishlari va qo'llab quvvatlashlari, do'stona munosabatda bo'lishlari, ruxiy birlikda bo'lishlariga erishadi. Interfaol metodlarni o'zlashtirish, pedagogik ta'sir etishni o'zlashtirish, ta'lim mazmunining tarkibiy qismini o'zlashtirish demakdir.

Bugungi kunda bo'lajak pedagoglar interfaol ta'limda faol qo'llaniluvchi bahs-munozaralar, amaliy treninglar, rolli o'yinlar, ishbilarmonlik o'yinlari, debatlar, intervyu, namoyish, aqliy hujm, “Bumerang”, “Qora quti”, “Qarorlar shajarasi”, “Olti o'ylantirgich qalpoqcha” va boshqa bir qancha interfaol metodlar bilan yetarli darajada tanish bo'lishlari maqsadga muvofiqdir. Quyida biz ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishi mumkin bo'lganba'zi bir interfaol metodlar haqida ma'lumot hamda ularni qo'llash tartibi to'g'risida metodik tavsiyalar beramiz.

“**SWOT**” – metodi. Biz ushbu metodni bugungi kunda shiddat bilan rivojlanayotgan jamiyatda o'qituvchi faoliyati ya'ni zamonaviy o'qituvchi qanday bo'lmog'i kerak degan savolga javob topishimiz mumkin.

“**SWOT**” – metodi inglizcha s'z brikmalarining qisqartmasidan hosil bo'lgan. Ushbu metod bir masalaning to'rt qirrasini ko'rib chiqish imkonini beradi.

Qo'llash tartibi: bugungi kunda o'quvchi shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'limni joriy etishda o'qituvchidan nimalar talab qilinadi, umuman zamonaviy o'qituvchi qanday bo'lishi kerak degan savollarga maktab direktori va o'quvchilar nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Ya'ni bu metodni amalga oshirishda quyidagi masalalarga e'tibor qaratiladi.

1. Strength (kuch) – zamonaviy o'qituvchining ustunlik jihati nimada, uning kuchli tomonlari sanab o'tiladi.
2. Weakne (zaiflik) – zamonaviy o'qituvchining zaiflik tomoni nimada.
3. Opportunities (imkoniyat) – zamonaviy o'qituvchining atrofida qanday imkoniyatlar mavjud.
4. Threat (xavf-xatar) – o'quvchi shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'limni joriy etishda qanday tashqi omillar xavf tug'dirishi mumkin.

Kuch (strength) bilimdon, o'z ustida tinimsiz ishlaydigan, qiziquvchan, talabchan, yangilikka intiluvchan	Zaiflik (Weakne) yumshoq tabiatli, jahldor, xotirasi sust
Imkoniyat (Opportunities) muassasa jamoasi orasida o'z o'rnini bor, hamma hurmat qiladi, o'quvchilarning ota-onalari qo'llab	Xavf-xatar (threat) muassasaning moddiy-texnik bazasi nochor, muassasa jamoasida nosog'lom muhit,

quvvatlaydi	o'quvchilarning ta'lim olishdagi harakatining sustligi
-------------	--

“Maqollar zanjiri” metodi. O'quvchilarni o'tilgan mavzuni egallaganlik va mavzu bo'yicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirib olganlik darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustahkamlash va o'z fikrini erkin bayon eta olishga imkoniyat yaratadi.

Qo'llash tartibi: “Maqollar zanjiri” quyidagi berilgan maqollar asosida tuzilgan bo'lib, har bir maqoldan keyin ko'rsatilgan raqam maqol tarkibidagi tushurib qoldirilgan so'z necha harfdan iborat ekanligini bildiradi. Birinchi maqolning oxirgi harfi bilan ikkinchi maqol boshlanadi.

<i>Maqollar</i>	<i>Javob</i>
1. Ishning o'zini bilgunchaini bil	Ko'z
2. Libosingga oro bergunchaga zeb ber	Farosating
3. mehmon osh ustidan chiqar	Rizqli
4. Ro'zg'ori kattaning ham katta	Tashvishi

“PANNORAMA” metodi. Bume to'dmunoazaralimasalalarnihaletishda, bahs-munoazaralar o'tkazishdayokio'tilganmavzunimustahkamlashdao'tkazilishimumkin. Chunki, bumetodo'quvchilarnio'zfikrinihimoya qilishga, erkinfikirlashgavao'zfikriniboshqalargauqtirishga, o'zgalarbilanbahs-munoazarao'tkazishga, shuningdek, darsjarayonidaegallaganbilimlarnitahlil qilishga, qaydarajadao'zlashtirganinibaholashgavabahs-munoazarao'tkazishmadaniyatigao'rgatadi.

Qo'llanish tartibi: bir muammo yuzasidan har bir ishtirokchi o'z fikr-mulohazalarini bildiradi. Ya'ni, ishtirokchi muammoning kelib chiqish sabablarini qidiradi, uning yechimini topadi va o'zining shaxsiy fikrini aytadi.

<i>Muammoli masalaning</i>	<i>Kelib chiqish sabablari</i>	<i>Muammoning yechimi</i>	<i>Shaxsan men nima qilardim</i>
-----------------------------------	---------------------------------------	----------------------------------	---

qo'yilishi			
Bo'lajak pedagoglarning texnologik kompetentligini shakllantirish			

2.3 Tajribaa-sinov ishlarini tashkil etish va natijalar tahlili

Pedagogikadabiyotlardabuyo'nalishdagitadqiqotishlariniolibborishdaasosiye'tibort adqiqetilayotganmuammoningamaliyjihatlariningyoritilishigaqaratilishizarurligita' kidlabo'tiladi.Darhaqiqat, har qanday pedagogik jarayon o'z mohiyatiga ko'ra o'qituvchi hamda o'quvchi o'rtasida yuzaga kelib, o'zida didaktik yoki tarbiyaviy xususiyatlarni namoyon etuvchi amaliy faoliyat mazmunini yoritadi. Nazariy-pedagogik g'oyalar aynan ta'lim yoki tarbiya jarayonining mohiyatini amaliy o'rganish, tahlil etish va umumlashtirish asosida shakllanadi.

Bo'lajak o'qituvchilarida texnologik kompetentligini shakllantirish muammosini tadqiq etish bo'yicha tajriba-sinov ishlarini olib borishda yuqorida qayd etilgan fikrlarga tayanib ish ko'rildi.

Avvalo, bo'lajak pedagoglar texnologik kompetentligini shakllantirishga yo'naltirilgan tajriba-sinov ishlarini tashkil etishdan ko'zlangan maqsad, bu borada hal etilishi ko'zda tutilgan vazifalar, tajriba-sinov ishlarining tashkil etilish bosqichlari, har bir bosqichning xususiy maqsadlari, ularning nazariy tahlilini o'tkazilish shartlari kabi holatlar o'z ifodasini topdi.

Tajriba-sinov ishlarini olib borishdan ko'zlangan maqsad – bo'lajak pedagoglarda texnologik kompetentliknii shakllantirish imkoniyatini yaratuvchi pedagogik shart-sharoitlar va omillarni aniqlab chiqishdan iborat. Tajriba-sinov ishlarini olib borishdan ko'zlangan maqsadga erishish quyidagi pedagogik vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish hisobiga ta'minlandi:

1. Bo'lajak pedagoglarda texnologik kompetentlikni shakllantirishga doir anketa so'rovini o'tkazish.

2. Bo'lajak pedagoglarda texnologik kompetentlikni shakllantirishga to'sqinlik qiluvchi omillarni aniqlash va ularni bartaraf etish chora-tadbirlarini belgilash.
3. Bo'lajak pedagoglar texnologik kompetentligini shakllantirish jarayonining samaradorligini ta'minlovchi shakl, metod va vositalarni aniqlash.
4. Bo'lajak pedagoglarda texnologik kompetentlikni shakllantirishga erishish.

Tajriba – sinov ishlari 2017-2018 o'quv yillari davomida uch bosqichda olib borildi. Tajriba maydoni etib Namangan shahar pedagogika kolleji "Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishi 302-guruh o'quvchilari jalb etildi. Tajriba-sinov ishiga 30 nafar o'quvchi jalb etildi. Shunday qilib, bo'lajak pedagoglarda texnologik kompetentlikni shakllantirishga qaratilgan tajriba-sinov ishlarini tashkil etishga jiddiy e'tibor qaratildi. Tajriba-sinov ishlari quydagi bosqichlarda olib borildi:

Kirish bosqichi - tadqiqotning dolzarbligi, muammoliligi, mavzusi aniqlandi, tajriba-sinov ob'ekti va maydoni belgilab olindi;

Ta'limiy-shakllantiruvchi (asosiy) bosqichda – tajriba-sinov guruhida o'qitishning pedagogik texnologiyalaridan foydalangan holda amalga oshirish, tajribalar o'tkazishga kerakli material va vositalar tayyorlandi, tajriba-sinov guruhi va tajriba maydonida kuzatishlar o'tkazildi, o'tkazilgan tajriba-sinov ishi yordamida mavzu mazmuni bo'yicha o'quvchilar bilimlarini o'zlashtirish va ko'nikmalarining shakllanganlik darajalari aniqlandi;

Tajribaviy-umumlashtiruvchi (yakuniy) bosqich – olingan natijalar qayta ishlendi, umumlashtirish va xulosalash, tavsiyalash amalga oshirildi.

Tajriba-sinov ishi quyidagi metodga tayanilgan holda amalga oshirildi:

Anketa so'rovi. Tajriba-sinov ishini yo'lga qo'yishda bu metoddan samarali foydalanish bo'lajak pedagoglarda kasbiy kompetentligini shakllantirishga xizmat qiladigan ob'ektiv va sub'ektiv omillari, ta'lim jarayonining imkoniyatlari haqidagi boshlang'ich va yakuniy ma'lumotlarni to'plashga xizmat qiladi. Tadqiqot davrida anketa so'rovnomasidan ochiq savollarning o'rin olishiga alohida e'tibor berildi. Buning sababi sinaluvchi-o'quvchilardan tadqiq etilayotgan muammoni ijobiy hal qilishga yordam beradigan zarur ma'lumotlarni imkon qadar ko'proq

olishdir. Tajriba davrida anketa so'rovlari sinaluvchi-o'quvchilar o'rtasida ikki marta, ya'ni, asoslovchi va ta'kidlovchi tajriba vaqtida tashkil etildi.

O'quvchilarda «Kompetentlik», «Texnologik kompetentlik», «Pedagogik mahorat» kabi tushunchalarni mohiyatini anglaganlik darajasini aniqlash maqsadida ularga quyidagi **anketa so'rovnomalari** tavsiya etildi.

1. “Kompetentlik deganda nimani tushinasiz”?
2. “Texnologik kompetentlik”ni mazmunini ayting?
3. Pedagogik mahorat bo'lajak pedagoglar faoliyatida qanday ahamiyatga ega?
4. Zamonaviy pedagogning texnologik kompetentligi nimalarda namoyon bo'ladi?
5. Qanday zamonaviy pedagogik texnologiyalarni bilasiz?
6. Siz ta'lim olayotgan muassasada texnologik kompetentlikka qaratilga amaliy harakatlar tashkil etiladimi?
7. Bo'lajak pedagog sifatida o'zingizda qanday sifatlar shakllangan bo'lishi kerak deb hisoblaysiz?
8. Siz ta'lim olayotgan muassasada o'quv mashg'ulotlari va o'quv tadbirlari jarayonida mavzuga oid ommaviy xborot vositalari xizmatidan samarali foydalaniladimi?
9. Sizningcha ta'lim jarayonida qanday interfaol usullardan foydalangan maqul?
10. Master klass, trening, tajriba almashish orqali bo'lajak pedagoglar kompetentligini shakllantirish mumkinmi?


Tajriba avvalida BT 302-guruh o'quvchilarining
ANKETA so'rovnomalari natijalariga ko'ra
Texnologik kompetentligini shakllanganlik darajasi

1-jadval

Tadqiqotning avvalgi aniqlovchi i bosqichi					
Tajriba bosqichi	Ta'lim muassasasi	O'quvchilar soni	Daraja (o'zlashtirish)	Guruhda ko'rsatilga	Tadqiqot guruhida

va o'quv yili				natija	% hisobida
2017- 2018 o'quv yili	Namangan sha-har pedagogika kolleji	30	yuqori (a'lo)	10	33,33333333
			o'rta (yaxshi)	8	26,66666667
			past (qoniqarli)	12	40

1.1 jadval



1.2 jadval

Savollar	Bt 30 - guruh talabalari					
	Guruhda talabalar soni				30	Ta
	Aniqlovchi bosqich					
	Yuqori	Yuqori % hisobida	O'rta	O'rta % hisobida	Past	Past % hisobida
1 – savol	8	26,66667	12	40	10	33,33333
2 – savol	7	23,33333	6	20	17	56,66667
3 – savol	8	26,66667	7	23,33333	15	50
4 – savol	9	30	8	26,66667	13	43,33333
5 – savol	8	26,66667	7	23,33333	15	50
6 – savol	11	36,66667	8	26,66667	11	36,66667
7 – savol	12	40	9	30	9	30
8 – savol	6	20	7	23,33333	12	40
9 – savol	13	43,33333	10	33,33333	7	23,33333
10 – savol	10	33,33333	7	23,33333	13	43,33333
Umumiy ko'rinishi	92	306,6667	81	270	122	406,6667

Kompetentlik, texnologik kompetentlik, mahoratini aniqlash bo'yicha tadqiqotdan avval o'tkazilgan anketa so'rovi natijalari jadvalda berilgan. Guruhlarda dars turlarini quyidagicha tashkil qilish maqsadga muvofiq: yangi mavzuni tushuntirishda ko'rgazmali metoddan foydalanish, muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirish, munozara uyushtirish, o'quvchilarning fikr-mulohazalari bilan o'rtoqlashish, ijodiy faolliklarini o'stirish, mustaqil fikrlashlarini shakllantirish, ilmiy yangilikka bo'lgan intilishlarini rivojlantirish kabilardir.

Tahlillar asosida chiqarilgan ushbu xulosa bo'lajak pedagoglarda texnologik kompetentlikni qay darajada shakllanganligidan dalolat beradi.

Demak, o'quvchilarda texnologik kompetentlikni shakllantirishning samarali usullar orqali o'rgatishda avvalo ularning o'zidagi ta'lim asoslarini o'rganishga bo'lgan bilishga qiziqishni o'stiruvchi omillarni aniqlab, ular orqali ta'sir etishga

erishish tadqiqotdan ko'zlangan asosiy maqsadlarning biri ekanligini yana bir bor asosladi.

Shu bois tajriba - sinov ishlarini tashkil etishning mazkur bosqichida o'quvchi-yoshlar "kompetentlik", "texnologik kompetentlik", "kasbiy kompetentlik", "mahorat" "pedagogik mahorat", "zamonaviy ta'lim", "zamonaviy pedagog" haqidagi bilimlarni to'laqonli idrok etishlarini ta'minlashga qaratilgan tadbirlarning o'tkazilishiga alohida e'tibor qaratdik.

Pedagog mshorati va kompetentligi mavzusida mavzusida davra suhbatini tashkil etildi. Davrda suhbatini tashkil etilishidan maqsad o'quvchii yoshlarda «Pedagogik kasb»,«Kasbiy kompetentlik», «Texnologik kompetentlik» haqida mavjud bilimlarini umumiyashtirib, nazariy asoslash.

"Pedagogikada o'z-o'zini tarbiyalash metodi" mavzusi "Ikki qismli kundalik", "Klaster", "Nima uchun", "Bumerang" texnologiyalari orqali tushuntirildi/
"Zamonaviy pedagog" mavzusida hamkorlik asosida baxs-munozara tashkil etildi, zamonaviy pedgoglarga qo'yilayotgan talablar slayd asosida tushuntirildi.

Bo'lajak pedagoglarda texnologik kompetentlikini shakllantirish muammosi bo'yicha olib borilgan keng ko'lamli sinov ishlarining samaradorligini va bo'lajak pedagoglarda texnologik kompetentlikning qaror topganlik darajasini aniqlash maqsadida tadqiqotning so'nggi bosqichida sinaluvchi-o'quvchilar o'rtasida yana bir bor anketa so'rovi tashkil etildi. Anketa so'rovnomasidan sinaluvchi-o'quvchilarda kasbiy kompetentlikni shakllanganlik darajasini tajriba-sinov ishlari yakunidagi holatini tahlil etishga xizmat qiladigan savollar o'rin oldi. (**So'rovnoma №2 jadval**).


Tajriba yakunida BT 302-guruh o'quvchilarining
ANKETA so'rovnomalari natijalariga ko'ra
Texnologik kompetentligini shakllanganlik darajasi

2-jadval

Tadqiqotning yakuniy ta'kidlovchi bosqichi					
Tajriba bosqichi	Ta'lim		Daraja	O'quvchilar soni	Tadqiqot guruhida

va o'quv yili	muassasasi		(o'zlashtirish)		% hisobida
2017- 2018 o'quv yili	Namangan sha-har pedagogika kolleji	30	yuqori (a'lo)	15	50
			o'rta (yaxshi)	11	36,66666667
			past (qoniqarli)	4	13,33333333

2.1 jadval



2.2 – jadval

Savollar	Bt 30 - guruh talabalari					
	Guruhda talabalar soni				30	Ta
	Ta'kidlovchi bosqich					
	Yuqori	Yuqori % hisobida	O'rta	O'rta % hisobida	Past	Past % hisobida
1 – savol	10	33,33333	11	36,66667	9	30
2 – savol	11	36,66667	9	30	10	33,33333
3 – savol	13	43,33333	10	33,33333	7	23,33333
4 – savol	14	46,66667	10	33,33333	6	20
5 – savol	12	40	12	40	6	20
6 – savol	13	43,33333	11	36,66667	6	20

7 – savol	18	60	10	33,33333	2	6,666667
8 – savol	9	30	8	26,66667	13	43,33333
9 – savol	17	56,66667	10	33,33333	3	10
10 – savol	10	33,33333	8	26,66667	12	40
Umumiy ko'rinishi	127	423,3333	99	330	74	246,6667

Guruhdagi talabalarning Davlat ta'lim standartlari talablariga javob berishi hisobga olindi. Tajriba-sinov asosida —mutaxassislik fanlarni yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'qitishning samaradorligini aniqlash uchun o'quvchilardan olingan yakuniy savollarva umumlashtiruvchi mashg'ulotlarning natijalari sifat hamda miqdor bo'yicha tahlil qilindi.

Quyidagi jadvalda yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish jarayonida o'quvchilar bilim darajasi dinamikasining o'zgarishi (son va % hisobida) keltirilgan.

Tajriba yakunida BT 302-guruh o'quvchilarining
ANKETA so'rovnomalari natijalariga ko'ra
 Texnologik kompetentligini shakllanganlik darajasi

Tajriba	Ta'lim		Tajriba guruhida
---------	--------	--	------------------

bosqichi va o'quv yili	muassasasi	O'zlashtirish darajasi	Tajriba boshida	Tajriba oxirida
2017- 2018 o'quv yili	Namangan shahar pedagogika kolleji	Yuqori (a'lo)	10 (33%)	15 (50%)
		O'rta (yaxshi)	8 (27%)	11 (37%)
		Past (qoniqarli)	12 (40%)	4 (13%)

Tadqiqot davrida, shuningdek, sinaluvchi-o'quvchilar tomonidan mavzu mohiyatini yorituvchi tayanch tushunchalarning o'zlashtirilishiga ham e'tibor qaratildi. Bunda o'quvchilarning tomonidan o'zlashtirilishi zarur bo'lgan quyidagi tayanch tushunchalar belgilandi: kompetentlik, kasbiy kompetentlik, texnologik kompetentlik, mahorat, pedagogic mahorat, kasbiy layoqat.

Shunday qilib, Bo'lajak harbiy ta'lim o'qituvchilarida kasbiy kompetentligini shakllantirish muammosi bo'yicha olib borilgan tajriba-sinov ishlarining samaradorligi ta'minlandi.

UMUMIY XULOSALAR

Bitiruv malakaviy ishining mavzusiga aloqador, ushbu muammo o'rganilgan adabiyotlar va o'tkazilgan tajribalar natijalariga ko'ra, Bo'lajak pedagoglarda texnologik kompetentlikni shakllantirish yo'llari xususida quyidagi **xulosalarni** berish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1. Bo'lajak pedagoglarda texnologik kompetentlikni shakllantirish yo'llari bilan bog'liq nazariy va amaliy tajriba natijasida «Texnologik kompetentlik» tushunchasi mazmuni va uni ishlab chiqishning asosiy yo'nalishlari aniqlandi;

2. Bo'lajak pedagoglarda texnologik kompetentlikni shakllantirish imkoniyatlari belgilandi;

3. Tarbiya nazariyasi va amaliyoti taxlili shuni ko'rsatdiki, bo'lajak pedagoglarni tayyorlashning ayrim bosqichlarida maxorat, bilimni egallashda ijodiy xususiyat hosil bo'ladi. Bu xususiyatlarning har biri alohida farqlanuvchi belgilari, tomonlariga ega bo'ladi.

4. Bo'lajak pedagoglarda texnologik kompetentlikni shakllantirishning didaktik shartlari, usullari, bosqichlari, ko'rsatkichlari aniqlandi.

5. Bo'lajak pedagoglarda texnologik kompetentlikni shakllantirishda mas'uliyatlilik, mehribonlik, mustaqillik, aqllilik, o'ziga bo'lgan ishonch kabi insoniy sifatlarga nisbatan o'ta ta'sirchan va e'tiborlidir.

6. Zamonaviy texnologik kompetentlikni shakllantirish mazmunli sohasi tahliliga ko'ra tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalari asosida pedagogik ta'limi tizimida bo'lajak pedagoglarda texnologik kompetentlikning shakllanganligini takomillashtirish bo'yicha quyidagi **amaliy tavsiyalar** taklif etiladi:

- ta'lim tizimida bo'lajak harbiy ta'lim pedagoglarning o'quv ijodiy tayyorgarlik tuzilmasi va mazmunini zamonaviy talablari asosida modernizatsiya qilib boorish kerak;

- ta'lim muassasasida mustaqil ta'lim olishga bo'lajak pedagoglarning o'quv ijodiy tayyorgarlik sifat va samaradorligini oshirish omili sifatida qaralib, uni uzviy va uzluksiz tashkil etishga e'tiborni kuchaytirish zarur;

- bo'lajak pedagoglarning pedagogic mahorati, kompetentligini rivojlantirishga bag'ishlangan amaliy konferensiyalar, seminarlar o'tkazish lozim;

- ta'lim muassasasida ta'lim olishda axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish tizimini ishlab chiqish va uzluksiz rivojlantirish chora tadbirlarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1..O'zbekiston Respublikasi Konsitutsiyasi – T.:O'zbekiston, 1992.-6 B.
- 2.O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi Qonuni" 12 bet
- 3."Kadrlart ayyorlash bo'yicha Milliy dasturi"(maxsus kurs).T.:1997.-60b.
- 4 .O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.Mirziyoyevyning “Oliy ta'lim tizimini rivojlantirish to'g'risida”gi PQ-2909 sonli qarori Toshkent sh. 2017-yil 20-aprel.
- 5.Karimov.I.A. O'zbekiston kelajagi buyuk davlat O'zbekiston,1992.62bet.
- 6.Karimov.I.A. “O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li”. T.:O'zbekiston 1992.0-78 b.
- 6.Karimov. I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin.-T: 1994.-199 b.

- 7.Karimov. I.A. Istiqlol va ma'naviyat.-T.: O'zbekiston, 1994-34 b
- 8.Karimov I.A.Barkamol avlod orzusi.-T.:Sharq,1998.-184 b.
- 9 .Karimov I.A/ Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori – T,-1997
- 10.Aripov M. Internet va elektron aloqa asoslari. –T.:«Universitet». 2000, 132 b.
- 11.Ahmedov A.B., Taylaqov N.I. Informatika. Akademik litseylar va kasb–hunar kollejlari uchun darslik.–T.: O'zbekiston, 2001.–272 b.
- 12.G'ulomov S.S. va boshqalar. Axborot tizimlari va texnologiyalari: Oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik /Akademik S.S. G'ulomovning umumiy tahriri ostida. – T.: «SHarq», 2000.–529 b.
- 13.Yo'ldoshev J.G', Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. –T.: «O'qituvchi». 2004.
- 14.SayidahmedovN. Yangipedagogiktexnologiyalar (nazariyavaamaliyot). –T.: «Moliya» nashriyoti. 2003.
- 15.Inoyatov U.I. Ta'lim sifatini nazorat qilish va boshqarish G'G' Kasb-hunar ta'limi.- 2004.- №1.-B. 3-4.
- 16.S. G'ulomov. R. Ubaydullaeva. A. Ahmedov. “Mustaqil O'zbekiston”.
- 17.S.S. G'ulomov. X.R. Raimov. va boshqalar. “Ta'lim–tarbiya sifati va qirralari”. T; «Fan va texnologiyalar». 2004. Betlar. 9.
- 18.Taylaqov N.I. Uzluksiz ta'lim tizimi uchun informatikadan o'quv adabiyotlari yangi avlodini yaratishning ilmiy pedagogik asoslari. Monografiya. –T.: «O'zbekiston milliy entsiklopediyasi» Davlat nashriyoti, 2005. – 160 b.
- 19.Tolipov O', Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – T.: «Fan», 2005. 206 b.
- 20.Jo'raev R.H., Taylaqov N.I. Axborotlashgan ta'lim muhiti–o'qitish samaradorligini oshirish vositasi// Uzluksiz ta'lim. –2004.– №3. –B. 3–7.

21. Adizov B. Ta'limni didaktik loyihalash// Ta'limda axborot texnologiyalari resp. ilmiy–amaliy konferentsiya materiallari. –T.: TDPU, 2000,– B. 14–15.
22. Ochilov M “Muallim qalb me`mori” - T.: “Oqituvchi” 2000y 432bet
23. Ahmedova M “ Pedagogika nazariyasi va tarixi” – T.: “Tafakkur bo`stoni” 2011 yil 128 bet
24. Pedagogika T.: “Noshir” 2011y
25. Rahmonqulov N.X “Pedagogika nazariyasi va tarixi” T.: 2010 y 116 bet
26. Azizxo`jayeva N.N “Pedagogik texnologiya va pedagogic mahorat” T.: 2003y 174bet
27. Zunnunova A “Pedagogika nazariyasi” – T.: “Aloqa” 2006y 164bet
28. Shoyaqulova Sh “Interfaol usul” T.: “Tafakkur bo`stoni” 2012y 136bet.
29. Hodjaboyev A.R va boshqalar “Kasbiy ta`lim metodologiyasi” T.: “Fan va texnologiya” 2007 192bet
30. Zunnunova A “oilada bola shaxsini shakllantirish” T.: “Platinum Publisher” 2006y 112bet
31. Oila pedagogikasi – T.: “Aloqachi” 2007yil 384bet

Internet tarmog'idan foydalanilgan manbaalar

32. Ziyonet axborot ta'lim portali (www.ziyonet.uz)
33. Oliy va o'rta maxsus ta'limi sayti (www.edu.uz)
34. Xalq ta'limi vazirligi sayti (www.uzedu.uz)
35. Ziyozistagan qalblar uchun (www.ziyouz.com)
36. Barcha turdagi referatlar (www.referatlar.uz)
37. Wikipedia ensiklopediya (www.uz.wikipedia.org)

38.O'zbekiston Milliy Axborot Agentligi sayti (www.uza.uz/uz)

ILOVALAR


1-Ilova

1. “Kompetentlikdegandanimanitushinasiz”?
2. “Texnologikkompetentlik”nimazmuniniayting?
3. Pedagogikmahoratbo'lajakpedagoglarfaoliyatidaqandayahamiatgaega?
4. Zamonaviy pedagogning texnologik kompetentligi nimalarda namoyon bo'ladi?
5. Qanday zamonaviy pedagogik texnologiyalarni bilasiz?
6. Siz ta'lim olayotgan muassasada texnologik kompetentlikka qaratilga amaliy harakatlar tashkil etiladimi?
7. Bo'lajak pedagog sifatida o'zingizda qanday sifatlar shakllangan bo'lishi kerak deb hisoblaysiz?
8. Siz ta'lim olayotgan muassasada o'quv mashg'ulotlari va o'quv tadbirlari jarayonida mavzuga oid ommaviy xborot vositalari xizmatidan samarali foydalaniladimi?
9. Sizningcha ta'lim jarayonida qanday interfaol usullardan foydalangan maqul?
10. Master klass, trening, tajriba almashish orqali bo'lajak pedagoglar kompetentligini shakllantirish mumkinmi?

2- Ilova

Tadqiqotning avvalgi aniqllovchi i bosqichi					
Tajriba bosqichi va o'quv yili	Ta'lim muassasasi	O'quvchilar soni	Daraja (o'zlashtirish)	Guruhda ko'rsatilga natija	Tadqiqot guruhida % hisobida
2017-2018 o'quv yili	Namangan sha-har pedagogika kolleji	30	yuqori (a'lo)	10	33,33333333
			o'rta (yaxshi)	8	26,66666667
			past (qoniqarli)	12	40

--	--	--	--	--	--




Savollar	Bt 30 - guruh talabalari					
	Guruhda talabalar soni				30	Ta
	Aniqlovchi bosqich					
	Yuqori	Yuqori % hisobida	O'rta	O'rta % hisobida	Past	Past % hisobida
1 – savol	8	26,66667	12	40	10	33,33333
2 – savol	7	23,33333	6	20	17	56,66667
3 – savol	8	26,66667	7	23,33333	15	50
4 – savol	9	30	8	26,66667	13	43,33333
5 – savol	8	26,66667	7	23,33333	15	50
6 – savol	11	36,66667	8	26,66667	11	36,66667
7 – savol	12	40	9	30	9	30
8 – savol	6	20	7	23,33333	12	40
9 – savol	13	43,33333	10	33,33333	7	23,33333
10 – savol	10	33,33333	7	23,33333	13	43,33333
Umumiy ko'rinishi	92	306,6667	81	270	122	406,6667

3- Ilova

Tadqiqotning yakuniy ta'kidlovchi bosqichi					
Tajriba bosqichi va o'quv yili	Ta'lim muassasasi		Daraja (o'zlashtirish)	O'quvchilar soni	Tadqiqot guruhida % hisobida
2017-2018 o'quv	Namangan sha-har pedagogika	30	yuqori (a'lo)	15	50
			o'rta (yaxshi)	11	36,66666667
			past	4	13,33333333

yili	kolleji		(qoniqarli)	
------	---------	--	-------------	--



Savollar	Bt 30 - guruh talabalari					
	Guruhda talabalar soni				30	Ta
	Ta'kidlovchi bosqich					
	Yuqori	Yuqori % hisobida	O'rta	O'rta % hisobida	Past	Past % hisobida
1 – savol	10	33,33333	11	36,66667	9	30
2 – savol	11	36,66667	9	30	10	33,33333
3 – savol	13	43,33333	10	33,33333	7	23,33333
4 – savol	14	46,66667	10	33,33333	6	20
5 – savol	12	40	12	40	6	20
6 – savol	13	43,33333	11	36,66667	6	20
7 – savol	18	60	10	33,33333	2	6,66667
8 – savol	9	30	8	26,66667	13	43,33333
9 – savol	17	56,66667	10	33,33333	3	10
10 – savol	10	33,33333	8	26,66667	12	40
Umumiy ko'rinishi	127	423,3333	99	330	74	246,6667

4- Ilova

--	--	--	--

Tajriba bosqichi va o'quv yili	Ta'lim muassasasi	O'zlashtirish darajasi	Tajriba guruhida	
			Tajriba boshida	Tajriba oxirida
2017-2018 o'quv yili	Namangan shahar pedagogika kolleji	Yuqori (a'lo)	10 (33%)	15 (50%)
		O'rta (yaxshi)	8 (27%)	11 (37%)
		Past (qoniqarli)	12 (40%)	4 (13%)

